FINANCIAL AND ECONOMIC SUSTAINABILITY

MOLIYAVIY-INVESTITSION STRATEGIYALARNI ISHLAB CHIQISHNING XALQARO TAJRIBALARI VA UNDAN O‘ZBEKISTON AMALIYOTDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Baxriddinov K.B.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20743377

Annotatsiya. *Mazkur maqolada moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishning xalqaro tajribalari hamda ularni O‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Xalqaro kompaniyalar faoliyatida qo‘llanilayotgan strategik moliyaviy tahlil usullari, ESG tamoyillari va investitsion portfelni boshqarish mexanizmi o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish, kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish va moliyaviy-investitsion strategiyalar samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *moliyaviy-investitsion strategiya, ESG, investitsion portfel, kapital bozori, strategik tahlil, SWOT, PESTEL, BSC, lizing, investitsion jozibadorlik.*

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING FINANCIAL AND INVESTMENT STRATEGIES AND OPPORTUNITIES FOR THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN

Bakhriddinov K.B.
Kimyo international university in Tashkent

Annotation: *This article examines international practices in developing financial and investment strategies and explores the possibilities of adapting them to Uzbekistan’s economic environment. The study analyzes strategic financial assessment tools, ESG principles, and investment portfolio management mechanisms widely used by leading international corporations. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to enhance the investment attractiveness of joint-stock companies, expand their participation in capital markets, and improve the effectiveness of financial and investment strategies in ensuring sustainable corporate development.*
Key words: *financial and investment strategy, ESG, investment portfolio, capital market, strategic analysis, SWOT, PESTEL, Balanced Scorecard, leasing, investment attractiveness.*

Kirish

Rivojlangan davlatlar tajribasida kompaniyalar moliyaviy-investitsion strategiyalarini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida shakllantirish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash, korporativ boshqaruv sifatini oshirish hamda kapital bozoridan samarali foydalanish ustuvor

yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda aksiyalar bozori, korporativ obligatsiyalar, “yashil” moliyalashtirish instrumentlari, lizing va xususiy investitsiya fondlaridan kompleks foydalanish amaliyoti keng rivojlangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat ishtirokini qisqartirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faolligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida [1] davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish hamda kapital bozori instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik jamiyatlarida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son qarori [2] qabul qilindi. Mazkur qarorda korxonalarning operatsion samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlarini joriy etish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan.

Xalqaro tadqiqotlar ko‘rsatishicha, jahon iqtisodiyotida “yashil iqtisodiyot”, barqaror moliyalashtirish va ESG investitsiyalarining ulushi tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari va investitsiya fondlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarda ekologik va ijtimoiy mezonlarga moslik investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy talablaridan biriga aylanmoqda. Natijada kompaniyalar moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqishda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy mas’uliyat omillarini ham hisobga olishga majbur bo‘lmoqda.

Milliy amaliyotdagi tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion dasturlarni moliyalashtirish manbalarining chegaralanganligi, kapital bozoridan foydalanish darajasining pastligi, investitsion portfelni boshqarish mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda xalqaro moliyaviy-investitsion strategiyalarni qo‘llash amaliyotining barqaror emasligi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda deb o‘ylaymiz. Mazkur holatlar moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishning xalqaro tajribalarini har tomonlama o‘rganish, ularni O‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqish masalasi korporativ moliyalashtirish, investitsion boshqaruv, kapital bozorini rivojlantirish, ESG tamoyillarini joriy etish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiyotda raqamli transformatsiya, barqaror

rivojlanish konsepsiyasi va xalqaro kapital oqimlarining jadallashuvi sharoitida kompaniyalarning moliyaviy-investitsion strategiyalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Friede G., Busch T. va Bassen A. tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ESG mezonlarini investitsion strategiyalarga integratsiya qilishning moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlariga amal qiluvchi kompaniyalar uzoq muddatli istiqbolda yuqori moliyaviy natijalarga erishishi hamda investorlar ishonchini mustahkamlashi aniqlangan. Mualliflar ESG tamoyillari zamonaviy moliyaviy-investitsion strategiyalarning muhim tarkibiy qismi ekanligini asoslab bergan [3]. Krüger P., Sautner Z. va Starks L.T. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda institutsional investorlarning investitsion qarorlar qabul qilishda ESG omillariga e'tibori tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ESG mezonlari asosida shakllantirilgan investitsion portfellar investitsion risklarni kamaytirish va kompaniyalarning bozor qiymatini oshirish imkonini beradi. Mualliflar korporativ moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda barqaror rivojlanish tamoyillaridan foydalanish zarurligini ta'kidlagan [4]. Damodaran A. ilmiy tadqiqotlarida investitsion strategiyalarni shakllantirishda kapital qiymatini baholash, risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni aniqlash hamda investitsion portfelni diversifikatsiyalashning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Muallifning fikricha, kompaniyalar moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqishda korporativ qiymatni maksimallashtirish asosiy maqsad sifatida qaralishi lozim [5]. Cumming D. va Johan S. ilmiy ishlarida korporativ investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda kapital bozori instrumentlari, IPO va korporativ obligatsiyalar bozori hamda institutsional investorlar faoliyatining ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kapital bozoridan samarali foydalanish kompaniyalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi [6].

I.I.Ivashkovskaya o'zining ilmiy ilmiy tadqiqotlarida, zamonaviy kompaniyalarning moliyaviy-investitsion strategiyalari tashqi iqtisodiy noaniqliklar, xalqaro kapital bozorlari transformatsiyasi va geosiyosiy cheklovlar sharoitida shakllantirilishi kerakligini ta'kidlangan. Muallifning fikricha, kompaniyalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, strategik risk-menejment tizimini rivojlantirish hamda korporativ moliyaviy modellarni global iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [7]. D.V.Tixomirov investitsion loyihalarni moliyalashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda sindikatlashgan kreditlash, davlat-xususiy sheriklik hamda infratuzilmaviy moliyalashtirish mexanizmining samaradorligini asoslab bergan. Muallifning ta'kidlashicha, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan mazkur moliyaviy instrumentlardan foydalanish investitsion loyihalarning jozibadorligini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda uzoq muddatli investitsion dasturlar barqarorligini ta'minlash imkonini beradi [8]. A.V.Kuznetsov o'z ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy xalqaro investitsion rivojlanish jarayonlari global qiymat yaratish zanjirlarining transformatsiyasi, investitsion oqimlarning yangi

markazlarga yo‘nalishi va iqtisodiy hududlararo integratsiyaning kuchayishi bilan tavsiflanishini qayd etgan. Muallifning xulosalariga ko‘ra, kompaniyalar va davlatlarning moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqishda jahon iqtisodiyotidagi geoiqtisodiy fragmentatsiya jarayonlari, yangi investitsion markazlarning shakllanishi hamda xalqaro kapital uchun raqobatning kuchayishi kabi omillar albatta hisobga olinishi zarur [9].

A.Burxanov va O.Xamdamovning fikriga ko‘ra, moliyaviy strategiya korxona faoliyatining eng muhim tomonlarini qamrab oladi, moliyaviy resurslarning shakllanishi va foydalanishda zarur bo‘ladigan holatni oldindan nazorat qilishni ta’minlaydi, korxonaning moliyaviy sharoitini mustahkamlash uchun sharoit yaratadi [10]. Sh.Egamberdiyevning fikricha, korxona rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uning tadbirkorlik faoliyatini asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan boshlanadi. Bundan kelib chiqqan holda uning amalga oshirilish shakllari belgilanadi va yakuniy tanlov bajariladi. Strategiya o‘zida har qanday korxonaning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani amalga oshirish hamda maqsadga erishishni mo‘ljallangan detallashtirilgan shakldagi har tomonlama reja hisoblanadi [11].

Fikrimizcha, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining joriy bosqichida global moliya bozori integratsiyasining rivojlanishi, geosiyosiy noaniqliklar, raqamli transformatsiya jarayonlari va barqaror rivojlanish tamoyillarining keng joriy etilishi sharoitida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqish kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Samarali moliyaviy-investitsion strategiya kapital bozorining zamonaviy instrumentlari, ESG tamoyillari, investitsion portfelni diversifikatsiyalash, strategik risk-menejment hamda raqamli moliyaviy texnologiyalarni o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llashga asoslanishi kerak. Shuningdek, xalqaro amaliyotda tajribada foydalanilgan moliyalashtirish mexanizmini milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish, korporativ boshqaruv samaradoriligini oshirish, investitsion qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligi hamda investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash kompaniyalarning investitsion salohiyatini oshirishdagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirishda xalqaro amaliyot tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir jihatni aytib o‘tish joizki, xalqaro amaliyot tajribalaridan milliy amaliyotda foydalanishda tashqi omillarni bilan bog‘liq quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak: iqtisodiyotni rivojlanganlik darajasi; kapital va moliyaviy bozorini rivojlanganligi va institutsional investorlarning ishtiroki; moliyaviy instrumentlardan foydalanish xilma-xilligi; yirik kompaniyalarning tarkibida davlatning ishtiroki; moliyaviy ta’minotda nobank modelining ulushi va sh.k.

Xalqaro amaliyotni o‘rganishda AQSh yetakchi kompaniyalarining bu boradagi tajribalari jahondagi eng keng tarqalgan modellardan bo‘lib qolmoqda. Bu

birinchi navbatda xususiy korporatsiyalarning jahon bozorida ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatishdagi yetakchiligi hisoblansa, ikkinchidan dunyodagi eng yirik kapitallashuv darajasiga ega kompaniyalar aynan AQSh faoliyat yuritib kelmoqda. Bunday kompaniyalarga koʻplab nomlar va brendlarni keltirish mumkin, biroq biz mazkur paragraf orqali iqtisodiyoti yuqori rivojlangan davlatlarning bozoridagi yetakchi kompaniyalar tajribalarini tadqiq qilib chiqamiz. Albatta bu borada Tesla kompaniyasi barcha koʻrsatkichlar va yoʻnalishlar boʻyicha AQShdagi eng yirik korporatsiyalar roʻyxatidan joy olgan. Tashkil etilganiga koʻp boʻlmagan boʻlsada, mazkur kompaniyaning 2025 yilning oxirlari kelib kapitalizatsiya hajmi rekord darajaga yetib 1,46 trln. AQSh dollardan oshib ketdi. Bu esa kompaniyaga dunyodagi avtomobil kompaniyalarining kuchli 5 talik reytingidan joy olishiga sabab boʻldi. 2003 yilda tashkil etilgan Amerikaning yetakchi Tesla motors, inc avtomobil kompaniyasi elektrotexnika muhandisi va fizik Nikola Tesla nomi bilan atalgan. Tesla yuqori darajadagi toʻliq elektr transport vositalarini va ilgʻor elektr transport vositalarini ishlab chiqaradi va realizatsiya qiladi. Tesla kompaniyasi rivojlanish strategiyasining asosiy yoʻnalishi, innovatsiyalarga katta e'tibor qaratishi va oʻzining elektr transport vositalari va energiya saqlash tizimlari uchun texnologiyalarni ishlab chiqish uchun tadqiqot va ishlanmalarga (R&D) katta miqdordagi sarmoyalar kiritish hisoblanadi. Kompaniyaning ilmiy-tadqiqot ishlanmalari akkumulyator texnologiyasi, elektr poyezdlar, avtonom boshqarish va qayta tiklanadigan energiya kabi sohalarga qaratilgan. E'tiborli jihati, kompaniyaning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari tashkil etilgan boʻlib, mazkur markazlar tomonidan yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqiladi. Tesla ilmiy-tadqiqot ishlariga katta investitsiyalar kiritishi va innovatsiyalarga asosiy e'tibor qaratishi kompaniya muvaffaqiyatining asosiy boʻlib, elektromobil va energiyani saqlash sohalarida xalqaro standart talablari boʻyicha kompaniyaga bir qator ilgʻor texnologiyalarni yaratish imkonini berdi.

Tesla kompaniyasining umumiy rivojlanish strategiyalarini ikkita asosiy yoʻnalishga boʻlish mumkin, bular: Cybertruck va Roadster 2.0 (boshqa ommaviy ishlab chiqarilgan avtomobillarga nisbatan yuqori darajada tezlashadi) kabi yorqin loyihalar va yuqori foyda keltiruvchi Model S, Model X, Model 3 va Model Y avtomobil loyihalari hisoblanadi. Mazkur loyihalar rivojlanish yoʻnalishlari turlicha boʻlsada, biroq ularning asosiy maqsadi avtomobil sohasiga yangicha innovatsiyalarni olib kirish hisoblanadi. Tesla kompaniyasidan tajriba sifatida oʻrganadigan jihatlardan biri, Cybertruck kabi loyihalar yuqori foydaga erishish uchun moʻljallanmaganligi hisoblanadi. Ya'ni, ularning vazifasi mijozlar, investorlar e'tiborini jalb qilish va Tesla imijini dunyodagi eng innovatsion kompaniyalardan biri sifatida namoyon etishdir. Odatda kompaniya ta'sischilari bu kabi loyihalarni innovatsion kapital deb ataydi.

Tesla kompaniyasining biznes modeli va biznes strategiyasi uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

- dizayn va an'anaviy loyihalash;
- oʻziga xos ishlab chiqarish;
- mahsulotlarni toʻgʻridan-toʻgʻri yetkazib berish.

Fikrimizcha, moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishning xalqaro amaliyot tajribalari haqida gap ketganda birinchi navbatda Germaniya tajribasini alohida e'tirof etish kerak. Germaniyada bugungi kunda jahon yirik TMK, korporatsiyalar va yirik banklar va sug'urta kompaniyalari uchun istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqishda xalqaro moliyaviy konsalting kompaniyalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Nafaqat Germaniyada balki Yevropa ittifoqi va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning biznesdagi asosiy g'oyasi faqatgina foyda olish emas balki atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilmoqda. Shuning uchun keyingi yillarda biznes strategiyalarni ishlab chiqishda ESG (atrof muhit-environmental, ijtimoiy-social, korporativ boshqaruv-governance) tamoyillari alohida e'tibor qaratilmoqda. Biznes strategiyasini ishlab chiqishning mazkur modeli atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'ullik va sifatli korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Germaniya kompaniyalari va ularning moliyaviy strategiyalari haqida gap ketar ekan avvalo, 100 yildan ko'p tarixga ega bo'lgan BMW kompaniyasi alohida tajribalarni keltirish zarur deb hisoblaymiz. BMW qisqartmasi "Bayerische Motoren Werke GmbH"dan olingan bo'lib "Bavariya motor zavodlari" deb tarjima qilinadi. 2025 yilning yakunlariga kelib kompaniyaning bozordagi kapitalizatsiya hajmi 70 mlrd. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, muomaladagi aksiyalar soni 600 mln. donadan ko'proqni tashkil etmoqda. Bu esa kompaniyaning free-float darajasini yuqori ekanligini namoyon etadi. BMWning raqobatbardosh va o'sish strategiyalari kompaniyaga sanoatda mustahkam o'rin egallash bilan birga premium avtomobillar bozorida kuchli mavqega erishish va uni saqlab qolish imkonini beradi. Kompaniyani boshqa avtomobil ishlab chiqaruvchilarga nisbatan mavqeyining mustahkamlanishi o'ziga xos ishlab chiqarish platformalariga egalik qilish va mustaqil andozalarning mavjudligi hisoblanadi.

Umuman olganda, murakkab biznes dunyosida korporativ strategiya va biznes strategiyasining nozik tomonlarini yo'naltira olish uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun zarurdir. Kompaniyalar ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqlarni va ularning o'zaro ta'sirini tushunish orqali barqaror o'sish va raqobatdosh ustunlik yo'nalishini belgilashlari mumkin. Mukammal strategiyalarni yaratish bozor sharoitida kompaniya nima qila olishi va qanday maqsadlarga erishmoqchi ekanligi haqida o'ylashni anglatadi. Shuningdek, tashqi omillarni keskin o'zgarib borayotganligi sharoitida tezkor o'zgarishga va yangi g'oyalar bilan chiqishga tayyor bo'lishni anglatadi. To'g'ri yondashuv bilan kompaniyalar strategik qarorlar qabul qilishning murakkabligini bartaraf etishlari va doimiy rivojlanayotgan bozorda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Samarali korporativ va biznes strategiyalarini ishlab chiqish bugungi dinamik biznes muhitida o'sish va muvaffaqiyatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro kompaniyalar tomonidan qo'llanilayotgan moliyaviy-investitsion strategiyalarni tahlili ko'rsatadiki, ularning muvaffaqiyati nafaqat innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish yoki investitsiyalar hajmini oshirish bilan, balki strategik boshqaruv tizimining kompleks va uzoq muddatli yondashuv asosida tashkil etilganligi bilan ham izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy kompaniyalar

amaliyotida strategik moliyaviy tahlil vositalari korporativ rivojlanishning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mazkur vositalar kompaniyaning tashqi va ichki muhitini baholash, investitsion imkoniyatlarni aniqlash, moliyaviy risklarni boshqarish hamda strategik maqsadlarga erishish darajasini monitoring qilish imkonini beradi. 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan davlatlar kompaniyalari moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda bir vaqtning o‘zida bir nechta strategik tahlil usullaridan foydalanadilar. Xususan, SWOT va PESTEL tahlillari kompaniyaning tashqi muhitini baholash va bozor imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qilsa, Porterning beshta kuch modeli tarmoqdagi raqobat darajasi va kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga,

1-jadval

Xorijiy kompaniyalarda qo‘llaniladigan strategik moliyaviy tahlil usullari

Tahlil turi	Ta’rifi	Maqsadi	Qo‘llash sohasi
SWOT tahlil	Kompaniyaning kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses) tomonlari, imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlarini (Threats) aniqlovchi tahlil	Strategik qarorlar qabul qilish uchun tashqi va ichki omillarni baholash	Har qanday strategik rejalashtirish
PESTEL tahlil	Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarning tahlili	Makromuhit ta’sirini baholash va strategik qarorlarni moslashtirish	Tashqi muhit tahlili
Porterning besh kuchi modeli (Porter’s F.F.)	Sanoatdagi raqobatni besh kuch asosida tahlil qilish: yangi raqobatchilar, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, o‘rinbosar mahsulotlar, raqobat	Bozor strukturasini strategik baholash	Sanoat tahlili
VRIO tahlili	Kompaniyaning resurslarini 4 mezon asosida baholaydi: Qimmatli, Noyob, Imitatsiyaga chidamli, Tashkiliy jihatdan mos	Uzoq muddatli raqobat ustunligini aniqlash	Ichki resurslar tahlili
Balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC)	Kompaniyaning moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarini muvozanatlangan tarzda baholash tizimi	Strategiyani amaliy monitoring qilish, bajarilishini tahlil qilish	Strategiyani amalga oshirish
GE/McKinsey Matrix	Mahsulotlar portfelini sanoat jozibadorligi va biznesning raqobatbardoshligi bo‘yicha baholash	Investitsion ustuvorliklarni aniqlash	Korporativ portfelni boshqarish
Qiymat zanjiri tahlili (Value Chain Analysis)	Kompaniyaning qiymat yaratish bosqichlarini tahlil qilish	Ichki operatsion samaradorlikni oshirish	Ichki faoliyatlarni strategik kuchga aylantirish
Ssenariy tahlil	Turli kelajakdagi ssenariylar asosida moliyaviy natijalarni bashorat qilish	Noaniqlik sharoitida strategik qarorlar qabul qilish	Investitsiya va risk tahlili
Monte Carlo simulyatsiyasi	Ehtimollikka asoslangan modellashtirish orqali moliyaviy xavflarni baholash	Moliyaviy xavflarni modelda aks ettirish va strategiya tanlash	Korporativ risk menejmenti

DuPont tahlili	ROE ko‘rsatkichini tahlil qilish: sof foyda, aktivlar rentabelligi va moliyaviy leverage orqali	Kompaniyaning moliyaviy natijadorligini strukturaviy tahlil qilish	Rentabellikni chuqur tahlil qilish

VRIO modeli kompaniyaning ichki resurslari va raqobat ustunliklarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, uzoq muddatli strategik rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadvalda keltirilgan BSC modeli esa kompaniya faoliyatini moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi. Bugungi kunda Tesla, BMW, Siemens, Toyota, Microsoft va Apple kabi yirik kompaniyalar strategiyalarini amalga oshirish samaradorligini monitoring qilishda aynan ushbu tizimdan keng foydalanmoqda. Mazkur model moliyaviy natijalar bilan bir qatorda mijozlar talablarining bajarilishi, biznes jarayonlari samaradorligi va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlarini ham qamrab olishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, GE/McKinsey va Qiymat zanjiri tahlili (Value chain analysis) usullari kompaniyaning investitsion portfeli hamda biznes yo‘nalishlari rentabelligini baholashda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, BMW va Volkswagen kabi transmilliy korporatsiyalar turli biznes segmentlarining strategik jozibadorligini aniqlash va investitsion resurslarni samarali taqsimlashda ushbu vositalardan muvaffaqiyatli foydalanib kelmoqda. Bunday yondashuv investitsion mablag‘larni yuqori samaradorlikka ega loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida Ssenariy tahli va Monte Carlo modellarining qo‘llanilishi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur usullar noaniqlik va tavakkalchilik yuqori bo‘lgan sharoitlarda strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tesla kompaniyasining elektromobillar bozoridagi istiqbolli rivojlanish ssenariylari, BMW kompaniyasining elektr transport vositalariga o‘tish strategiyasi hamda energiya saqlash texnologiyalariga investitsiyalar kiritish qarorlari aynan ssenariyli tahlil natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Bu esa kompaniyalarga turli iqtisodiy sharoitlarda moliyaviy natijalarni oldindan baholash va strategik risklarni kamaytirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, DuPont tahlili xorijiy kompaniyalar moliyaviy-investitsion strategiyalarining ajralmas qismi sifatida qo‘llanilib, kapital rentabelligi (ROE), sof foyda marjasi, aktivlar aylanuvchanligi va moliyaviy leveraj o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kompaniya qiymatini oshirishning ichki manbalarini aniqlash va moliyaviy boshqaruv samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqish jarayonida xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan SWOT, PESTEL, BSC, Ssenariy tahlil hamda Monte Carlo simulyatsiyasi kabi zamonaviy strategik tahlil usullaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, bir tomondan, investitsion qarorlar sifatini oshirishga, ikkinchi tomondan, investitsion portfelni diversifikatsiyalash va moliyaviy risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari va lizing kompaniyalarida ESG tamoyillari bilan integratsiyalashgan strategik tahlil tizimini joriy etish investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xalqaro kapital bozorlaridan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa va takliflar

Korporativ tuzilmalarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmini rivojlantirish sharoitida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda korporativ qiymatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotda yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, kapital bozorlaridagi o‘zgarishlar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kompaniyalardan investitsion faoliyatni strategik boshqarishning yangi mexanizmini qo‘llashni va samarali foydalanishni talab etmoqda. Shuning uchun moliyaviy-investitsion strategiyalarni korporativ boshqaruv tizimi bilan integratsiyalashgan holda shakllantirish kompaniyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida investitsion portfelni diversifikatsiyalash, korporativ obligatsiyalar, “yashil” obligatsiyalar, IPO va xususiy investitsiya fondlari kabi moliyalashtirish manbalaridan kompleks foydalanish kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida qaraladi. O‘zbekiston amaliyotida ham davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish, investitsion dasturlarni moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish hamda korporativ moliyalashtirishning muqobil manbalaridan foydalanish investitsion faoliyat samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirish imkonini beradi.

Moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish, investitsion qarorlar qabul qilishda korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va raqamli moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kuzatuv kengashi mustaqil a’zolarining investitsion qarorlar qabul qilishdagi rolini yanada oshirish, investitsion monitoring tizimlarini raqamlashtirish hamda strategik tahlil vositalaridan foydalanishni kengaytirish kompaniyalarning investitsion salohiyatini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-163-son qarori.
3. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. - 2021. - Vol. 11, No. 4. - Pp. 210-233.
4. Krüger P., Sautner Z., Starks L.T. The Importance of Climate Risks for Institutional Investors // Review of Financial Studies. - 2020. - Vol. 33, No. 3. - Pp. 1067-1111.

5. Damodaran A. Corporate Finance: Theory and Practice in a Changing Global Environment // Journal of Applied Corporate Finance. - 2022. - Vol. 34, No. 2. - Pp. 24-39.
6. Cumming D., Johan S. Capital Market Development and Corporate Investment Strategy // European Financial Management. - 2023. - Vol. 29, No. 5. - Pp. 1185-1216.
7. Ивашковская И.И., Тихомиров Д.В., Наумцева Е.И. и др. Российские корпорации в новой реальности. Финансовые стратегии на пути к антихрупкости. - Москва: НИУ «Высшая школа экономики», 2024. - 360 с.
8. Тихомиров Д.В. Развитие синдицированного финансирования инвестиционных проектов в Российской Федерации: фабрика проектного финансирования. - Санкт-Петербург: Издательство Международного банковского института имени Анатолия Собчака, 2024. - 151 с.
9. Кузнецов А.В. Трансформация мировой экономики и новые тенденции международного экономического сотрудничества // Мировая экономика и международные отношения. - 2023. - Т. 67. - № 9.
10. Burxanov A.U., Xamdamov O.N. Moliyaviy manejment Darslik - T: - 2020 yil 468 bet.
11. Egamberdiyev Sh.S., Mo‘minov Sh.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilishda moliyaviy strategiyaning o‘rni va ahamiyati// Research and education, Volume 2, Issue 4, 2023.